

GLOBALLASHUV SHAROITIDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

Samiyev Mirkamol Amridin o'g'li
Samarqand iqtisodiyot va servis instituti
Mustaqil izlanuvchisi
Tel.: +998 91 526 44 46

Annotatsiya. Mazkur maqolada globallashuv sharoitida kambag'allikni qisqartirishning dolzarb masalalari, unga ta'sir etuvchi iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional omillar hamda zamonaviy yondashuvlar tadqiq etilgan. Globallashuvning xalqaro savdo, xorijiy investitsiyalar, texnologiyalar transferi, mehnat migratsiyasi va raqamli iqtisodiyot orqali kambag'allik darajasiga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqotda kambag'allikni qisqartirishda inklyuziv iqtisodiy o'sish, sifatli bandlik, aholi daromadlarini oshirish, inson kapitalini rivojlantirish, daromadlar tengsizligini kamaytirish va manzilli ijtimoiy himoyaning ahamiyati asoslangan. Shuningdek, globallashuvning kambag'allikka ta'siri mamlakatlarning institutsional salohiyati va iqtisodiy rivojlanish darajasiga bog'liqligi aniqlangan. O'zbekiston tajribasi asosida kambag'allikni qisqartirishning amaldagi tendensiyalari tahlil qilinib, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, bandlikni oshirish va raqamli inklyuziyani kuchaytirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan. Tadqiqot natijalari globallashuvdan olinadigan iqtisodiy manfaatlarni aholining barcha qatlamlari uchun yanada teng va inklyuziv taqsimlash kambag'allikni barqaror qisqartirishning muhim sharti ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: globallashuv, kambag'allik, kambag'allikni qisqartirish, inklyuziv iqtisodiy o'sish, iqtisodiy tengsizlik, bandlik, aholi daromadlari, inson kapitali, ijtimoiy himoya, raqamli inklyuziya, mehnat migratsiyasi, O'zbekiston.

KIRISH

Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi jahon iqtisodiyotida mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik va institutsional aloqalarning yanada chuqurlashuviga olib kelmoqda. Xalqaro savdo va investitsiyalarning kengayishi, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, mehnat migratsiyasining kuchayishi hamda texnologik innovatsiyalarning tezkor tarqalishi bir tomondan iqtisodiy o'sish va yangi imkoniyatlarni shakllantirayotgan bo'lsa, ikkinchi tomondan daromadlar tengsizligi, mehnat bozoridagi nomutanosiblik va aholining ayrim qatlamlarining iqtisodiy imkoniyatlardan chetda qolishi kabi muammolarni kuchaytirmoqda. Shu sababli globallashuv sharoitida kambag'allikni qisqartirish masalasi nafaqat alohida davlatlarning, balki xalqaro hamjamiyatning ham strategik vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Bugungi kunda kambag'allikni faqat aholining pul daromadlari belgilangan chegaradan past bo'lishi bilan izohlash yetarli emas. Zamonaviy yondashuvlarda kambag'allik insonning munosib hayot kechirishi uchun zarur bo'lgan ta'lim, sog'liqni

saqlash, sifatli bandlik, uy-joy, ichimlik suvi, sanitariya, raqamli xizmatlar va boshqa asosiy imkoniyatlardan foydalanish darajasi bilan ham baholanmoqda. Shu jihatdan globallashuv jarayonlarining kambag'allikka ta'siri murakkab va ikki tomonlama xususiyatga ega: global iqtisodiy integratsiya yangi ish o'rinlari va daromad manbalarini yaratishi mumkin, biroq texnologik almashinuv, avtomatlashtirish, malaka talablari oshishi va iqtisodiy inqirozlar ayrim ijtimoiy guruhlarining zaifligini kuchaytirishi mumkin.

Mazkur muammo global iqtisodiy beqarorlik, geosiyosiy ziddiyatlar, iqlim o'zgarishi, oziq-ovqat va energiya narxlarining o'zgaruvchanligi sharoitida yanada dolzarb tus olmoqda. Ayniqsa, kambag'al va rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy shoklarning aholining daromadlari va bandligiga ta'siri kuchliroq namoyon bo'ladi. Jahon bankining 2024-yilgi Poverty, Prosperity, and Planet Report hisobotida global kambag'allikni qisqartirish sur'atlari sekinlashgani va kambag'allikni kamaytirish jarayonini jadallashtirish uchun inklyuziv iqtisodiy o'sish, sifatli ish o'rinlari hamda inson kapitaliga investitsiyalarni kuchaytirish zarurligi ta'kidlangan.

Globallashuv sharoitida kambag'allikni qisqartirishning yana bir muhim jihati — daromadlar tengsizligini kamaytirish masalasidir. Iqtisodiy o'sish natijalarining jamiyatning barcha qatlamlari o'rtasida teng taqsimlanmasligi kambag'allikning uzoq muddat saqlanib qolishiga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois kambag'allikka qarshi siyosat faqat iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlarini oshirishga emas, balki iqtisodiy o'sishning ijtimoiy samaradorligini ta'minlashga, ya'ni inklyuziv rivojlanish mexanizmlarini shakllantirishga yo'naltirilishi lozim.

Raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ham kambag'allikni qisqartirish uchun yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Elektron tijorat, masofaviy bandlik, raqamli moliyaviy xizmatlar, onlayn ta'lim va raqamli tadbirkorlik aholining iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Biroq raqamli infratuzilmaga ega bo'lmagan, tegishli bilim va ko'nikmalarga ega emas yoki raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyati cheklangan aholi guruhlari uchun bu jarayon yangi turdagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni yuzaga keltirishi mumkin. Demak, globallashuv sharoitida kambag'allikni qisqartirish siyosati raqamli inklyuziya masalasini ham qamrab olishi zarur.

O'zbekiston uchun ham mazkur masala alohida ahamiyatga ega. Mamlakatda kambag'allikni qisqartirish, aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, inson kapitalini oshirish va ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish bo'yicha institutsional islohotlar amalga oshirilmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda milliy kambag'allik darajasi 2021-yildagi 17 foizdan 2024-yilda 8,9 foizgacha pasaygan. Biroq globallashuvning yangi bosqichi mamlakat oldiga kambag'allikni nafaqat miqdoriy jihatdan qisqartirish, balki aholining iqtisodiy barqarorligi va turmush sifatini oshirish vazifasini ham qo'yimoqda.

Shu nuqtayi nazardan, globallashuv sharoitida kambag'allikni qisqartirishning dolzarb masalalarini tadqiq etishda iqtisodiy o'sish, bandlik, daromadlar tengsizligi, inson kapitali, ijtimoiy himoya, raqamli inklyuziya, mehnat migratsiyasi va hududiy rivojlanish omillarini kompleks ravishda o'rganish zarur. Tadqiqotning dolzarbligi ham aynan ushbu omillarning o'zaro ta'sirini aniqlash va globallashuv sharoitida

kambag'allikni barqaror qisqartirishga yo'naltirilgan samarali mexanizmlarni ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Globallashuv sharoitida kambag'allikni qisqartirish masalasi iqtisodiyot, ijtimoiy siyosat, xalqaro rivojlanish va inson kapitali yo'nalishlarida keng tadqiq etilmoqda. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda kambag'allik endilikda faqat daromadlarning yetishmasligi sifatida emas, balki insonning iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyatlaridan foydalanishdagi cheklanishi, tengsizlik, bandlik, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya bilan bog'liq ko'p qirrali hodisa sifatida qaralmoqda.

Globallashuv va kambag'allik o'rtasidagi bog'liqlik so'nggi yillarda iqtisodiy rivojlanishning muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylandi. Zamonaviy tadqiqotlarda globallashuvning kambag'allikka ta'siri bir xil emasligi, uning natijasi mamlakatning institutsional salohiyati, iqtisodiy o'sish sifati, daromadlar tengsizligi, bandlik va inson kapitalining rivojlanganlik darajasiga bog'liqligi ta'kidlanmoqda.

Bisiriyu va Malik globallashuvning kambag'allikni qisqartirishga ta'sirini rivojlanayotgan mamlakatlar kesimida tadqiq qilib, xalqaro iqtisodiy integratsiya, savdo va investitsiyalar kambag'allikni kamaytirishga xizmat qilishi mumkinligini, biroq ushbu samaralar mamlakatlarning ichki iqtisodiy va institutsional sharoitlariga bog'liq ekanligini asoslagan [1].

Ochi va boshqalar esa globallashuv, iqtisodiy o'sish va kambag'allik o'rtasidagi bog'liqlikni empirik jihatdan tadqiq qilib, global integratsiyaning kambag'allikni kamaytirishdagi samarasi mamlakatlar bo'yicha turlicha namoyon bo'lishini ko'rsatgan [2]. Mazkur tadqiqot globallashuvni avtomatik ravishda kambag'allikni qisqartiruvchi omil sifatida baholashdan ko'ra, uning ta'sir mexanizmlarini mamlakatlarning o'ziga xos sharoitlari asosida o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

Bundan tashqari, Saidi va boshqalar globallashuv va kambag'allik o'rtasidagi munosabatni iqtisodiy va institutsional omillar bilan bog'liq holda tadqiq qilgan [3]. Mualliflar xalqaro iqtisodiy integratsiyaning ijobiy natijalarini kuchaytirish uchun samarali davlat institutlari, inson kapitali va iqtisodiy imkoniyatlardan keng foydalanish imkoniyati zarurligini ta'kidlaydi.

Yana bir xorij olimlaridan biri Pal globallashuvning kambag'allikka ta'sirini rivojlanayotgan iqtisodiyotlar nuqtayi nazaridan tahlil qilib, xalqaro integratsiyaning kambag'allikni qisqartirishdagi samarasi iqtisodiy o'sishning inklyuzivligi bilan chambarchas bog'liqligini asoslagan [4].

Bolarinwa va boshqalar globallashuv va kambag'allik o'rtasidagi murakkab munosabatlarni zamonaviy ekonometrik yondashuvlar asosida o'rganib, globallashuvning ijobiy ta'siri iqtisodiy o'sish, bandlik va institutsional rivojlanish bilan birgalikda namoyon bo'lishini ko'rsatgan [5].

Eng yangi tadqiqotlardan birida Bisiriyu va Malik globallashuvning kambag'allikni kamaytirishdagi ta'siri chiziqli emasligini ko'rsatgan [6]. 116 ta rivojlanayotgan mamlakatning 2000–2021-yillardagi ma'lumotlari asosida Hansen panel threshold modeli va boshqa ekonometrik usullardan foydalanilgan. Natijalarga ko'ra, globallashuvning kambag'allikni kamaytiruvchi samarasi institutsional sifat

yuqori bo'lgan sharoitlarda kuchliroq namoyon bo'ladi.

Jahon bankining 2024-yilgi Poverty, Prosperity, and Planet Report tadqiqotida esa global kambag'allikni qisqartirish sur'atlari sekinlashgani qayd etilib [7], kambag'allikni kamaytirish uchun tezroq va inklyuziv iqtisodiy o'sish, ko'proq va sifatli ish o'rinlari, ta'lim, infratuzilma va asosiy xizmatlarga investitsiyalar zarurligi asoslangan.

Jahon bankining zamonaviy yondashuvida o'rtacha daromadlarning o'sishi kambag'allikni kamaytirish uchun o'z-o'zidan yetarli emas. Iqtisodiy o'sishning kambag'al qatlamlarga ham yetib borishi, ya'ni uning inklyuziv xususiyatga ega bo'lishi muhim hisoblanadi.

Genoni va Lakner globallashuv va kambag'allikning zamonaviy sharoitdagi o'zaro bog'liqligini tahlil qilib [8], kambag'allikni kamaytirish jarayonida iqtisodiy o'sish bilan bir qatorda kambag'al qatlamlarning iqtisodiy jarayonlarga faol jalb etilishi va o'sish natijalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish zarurligini ta'kidlaydi.

Globallashuv sharoitida kambag'allik muammosi zamonaviy iqtisodiy tadqiqotlarning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning mazmuni an'anaviy daromad yetishmovchiligi tushunchasidan ancha kengayib, insonning iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional imkoniyatlarining cheklanganligi bilan izohlanmoqda. Globallashuvning chuqurlashuvi natijasida xalqaro savdo, investitsiyalar, mehnat migratsiyasi, texnologiyalar va raqamli iqtisodiyot rivojlanayotgan bir vaqtda, ushbu jarayonlardan olinadigan iqtisodiy manfaatlarning turli aholi guruhlari o'rtasida notekis taqsimlanishi kambag'allik va tengsizlik muammosining dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Kambag'allikning nazariy asoslarini o'rganishda A.Senning imkoniyatlar yondashuvi alohida ahamiyatga ega [9]. Olim kambag'allikni faqat daromad yoki iste'mol darajasining pastligi bilan emas, balki insonning munosib hayot kechirish uchun zarur bo'lgan real imkoniyatlardan mahrumligi bilan bog'laydi. Mazkur yondashuv globallashuv sharoitida kambag'allikni baholash uchun muhim bo'lib, bunda ta'lim, sog'liqni saqlash, bandlik, ijtimoiy himoya va boshqa xizmatlardan foydalanish imkoniyatlari ham hisobga olinishi lozim.

Globallashuv va kambag'allik o'rtasidagi munosabatni tushuntirishda J.Stiglitzning tadqiqotlari ham muhim ahamiyatga ega [10]. Olim globallashuvning iqtisodiy imkoniyatlari bilan bir qatorda uning foydalari barcha ijtimoiy guruhlar o'rtasida teng taqsimlanmasligi mumkinligini ta'kidlaydi. Shu jihatdan globallashuvdan keladigan manfaatlarni keng aholi qatlamlariga yetkazish uchun davlat tomonidan samarali institutsional va ijtimoiy siyosat olib borilishi zarur.

MDH olimlari orasida kambag'allikni o'rganishda L.N.Ovcharovanning ilmiy ishlari alohida o'rin egallaydi. Olimaning "Теоретические и практические подходы к оценке уровня, профиля и факторов бедности: российский и международный опыт" nomli monografiyasida kambag'allikni baholashning nazariy va amaliy yondashuvlari, uning profili va shakllanish omillari Rossiya hamda xalqaro tajriba asosida tadqiq etilgan [11].

Ovcharovanning tadqiqotlari kambag'allikni faqat pul daromadlari orqali o'lchash bilan cheklanmasdan, bandlik, ta'lim, sog'liqni saqlash va ijtimoiy himoya

xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini ham hisobga olish zarurligini ko'rsatadi. Uning Rossiyada iqtisodiy o'sish va kambag'allik o'rtasidagi bog'liqlikka bag'ishlangan tadqiqotida iqtisodiy o'sish davrida kambag'allikning qisqargani, bunda ish haqi va bandlikning oshishi muhim omil bo'lgani ko'rsatiladi. Shu bilan birga, olimlar kambag'allikni yanada qisqartirish uchun iqtisodiy o'sishni manzilli ijtimoiy yordam va aholining o'zini o'zi ta'minlash imkoniyatlarini oshirish bilan uyg'unlashtirish zarurligini asoslaydi.

Mamlakatimiz olimlari ham ushbu mavzu doirasida ko'plab yangiliklarni ilgari surganlar. Jumladan, O.A.Aripov va A.X.Xolmirzayev kambag'allik tushunchasi, uning turlari va unga qarshi kurashish masalalarini tadqiq etgan [12]. Ularning ishlari O'zbekiston sharoitida kambag'allikning nazariy mohiyatini aniqlash va uni kamaytirish mexanizmlarini ishlab chiqish nuqtayi nazaridan ahamiyatlidir. Mazkur tadqiqotlar O'zbekiston sharoitida kambag'allikni iqtisodiy va ijtimoiy omillarning o'zaro ta'siri orqali o'rganish zarurligini ko'rsatadi.

U.A.Vosiqovning tadqiqotlari aholining daromadlari tabaqalanishi va kambag'allikni qisqartirishda fiskal siyosatdan foydalanish masalalariga bag'ishlangan [13]. Ushbu yondashuv globallashtirish sharoitida davlatning fiskal siyosati orqali daromadlarni qayta taqsimlash, ijtimoiy himoyani kuchaytirish va iqtisodiy tengsizlikni yumshatish imkoniyatlarini o'rganish uchun muhim metodologik asos yaratadi. Mazkur ish 2025-yilda doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati sifatida qayd etilgan.

G.A. Karimova (Karabayeva)ning tadqiqotlarida moliyaviy savodxonlikni kambag'allikni qisqartirishning muhim yo'nalishi sifatida ko'rib chiqilgan [14]. Muallif moliyaviy savodxonlikning ta'lim va yosh bilan bog'liqligini, aholining turli guruhlariga moliyaviy bilimlarni berish zarurligini asoslaydi. Ushbu yondashuv globallashtirish va raqamli iqtisodiyot sharoitida aholi daromadlarini samarali boshqarish hamda moliyaviy imkoniyatlardan foydalanish ko'nikmalarining ahamiyatini ko'rsatadi.

M.Fayziyeva kambag'allikni qisqartirishda raqamli texnologiyalarning ta'sirini tadqiq qilgan [15]. Tadqiqotda O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish strategiyalarida raqamli texnologiyalardan foydalanish masalalari o'rganilib, empirik tahlilda statistik usullardan foydalanilgan. Bu yondashuv globallashtirishning hozirgi bosqichida raqamlashtirishni kambag'allikni qisqartirishning yangi omili sifatida qarash imkonini beradi.

Sh. Toyirovning 2025-yildagi tadqiqotida kambag'allikni qisqartirishning xalqaro tajribasi va O'zbekiston sharoitida undan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan [16]. Muallif Janubiy Koreya, Xitoy, Braziliya va Norvegiya tajribalarini o'rganib, kambag'allikni kamaytirishda inson kapitaliga investitsiyalar va ijtimoiy dasturlarni iqtisodiy o'sish bilan uyg'unlashtirish muhimligini ta'kidlaydi.

Umuman, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, globallashtirish sharoitida kambag'allikni qisqartirishning nazariy yondashuvlari daromad yetishmasligi konsepsiyasidan ko'p o'lchovli va inklyuziv rivojlanish konsepsiyasiga tomon rivojlanmoqda. Zamonaviy tadqiqotlarda kambag'allikni qisqartirishning asosiy shartlari sifatida iqtisodiy o'sish, sifatli bandlik, inson kapitali, ijtimoiy himoya,

daromadlar tengsizligini kamaytirish va raqamli inklyuziya ko'rsatilmoqda.

METODOLOGIYA

Tadqiqot metodologiyasi globallashuv jarayonlarining kambag'allik darajasi va uning shakllanish omillariga ta'sirini aniqlash, kambag'allikni qisqartirishning zamonaviy mexanizmlarini o'rganish hamda O'zbekistonda mazkur yo'nalishda mavjud muammolar va istiqbollarni baholashga asoslandi. Tadqiqotda globallashuv, iqtisodiy o'sish, bandlik, aholi daromadlari, inson kapitali, ijtimoiy himoya va kambag'allik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tizimli ravishda o'rganildi.

Tadqiqotning obyekti sifatida globallashuv sharoitida kambag'allikni qisqartirish jarayonlari, predmeti sifatida esa global iqtisodiy jarayonlarning kambag'allikka ta'siri hamda kambag'allikni qisqartirishning iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional mexanizmlari belgilandi.

Tadqiqot tizimli, kompleks, qiyosiy va institutsional yondashuvlar asosida olib borildi. Tizimli yondashuv orqali kambag'allikning shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar o'zaro bog'liq holda o'rganildi. Kompleks yondashuvda kambag'allikning daromad, bandlik, ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy himoya va hududiy rivojlanish kabi ko'p o'lchovli jihatlarini hisobga olindi. Qiyosiy yondashuv asosida turli mamlakatlarning kambag'allikni qisqartirish tajribasi O'zbekiston sharoiti bilan taqqoslandi.

Tadqiqotda birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlardan foydalanildi. Ikkilamchi ma'lumotlar xalqaro tashkilotlarning hisobotlari, O'zbekiston Respublikasining rasmiy statistik ma'lumotlari, davlat dasturlari, normativ-huquqiy hujjatlar, ilmiy maqolalar, monografiyalar va analitik tadqiqotlardan olindi. Birlamchi ma'lumotlarni shakllantirishda kambag'allikni qisqartirish, bandlik, tadbirkorlik va ijtimoiy himoya yo'nalishlarida faoliyat yurituvchi mutaxassislar o'rtasida ekspert so'rovlari o'tkazish usulidan foydalanish mumkin.

Kambag'allikni qisqartirish natijasini baholashda kambag'allik darajasi asosiy natijaviy ko'rsatkich sifatida belgilandi. Uni izohlovchi omillar sifatida aholi jon boshiga daromad, bandlik darajasi, ishsizlik darajasi, o'rtacha ish haqi, ta'lim darajasi, ijtimoiy transfertlar, tadbirkorlik subyektlari soni, mehnat migratsiyasi va boshqa iqtisodiy-ijtimoiy ko'rsatkichlardan foydalanildi. Tadqiqotda quyidagi ilmiy-tadqiqot usullaridan foydalanildi:

tizimli tahlil – globallashuv va kambag'allik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash;

qiyosiy tahlil – turli mamlakatlarning kambag'allikni qisqartirish siyosatini taqqoslash;

statistik tahlil – kambag'allik va unga ta'sir qiluvchi ko'rsatkichlar dinamikasini o'rganish;

trend tahlili – kambag'allik darajasining vaqt davomida o'zgarish tendensiyasini aniqlash;

korrelyatsion tahlil – kambag'allik va uning asosiy determinantlari o'rtasidagi bog'liqlikni baholash;

regression tahlil – kambag'allik darajasiga ta'sir qiluvchi omillarning ta'sir

kuchini aniqlash;

SWOT-tahlil – O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirish siyosatining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlarini aniqlash;

PESTEL-tahlil – globallashuv sharoitida kambag‘allikni qisqartirishga ta’sir qiluvchi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, texnologik, ekologik va huquqiy omillarni baholash;

ekspert baholash usuli – kambag‘allikni qisqartirishning eng muhim mexanizmlarini aniqlash;

kontent-tahlil – ilmiy adabiyotlar va xalqaro tashkilotlarning kambag‘allik bo‘yicha tadqiqotlarini tizimlashtirish.

Globallashuv sharoitida kambag‘allikni qisqartirishning samaradorligini baholashda “iqtisodiy o‘lish – bandlik – daromadlar – inson kapitali – ijtimoiy himoya – kambag‘allikni qisqartirish” o‘zaro bog‘liqlik modeli asos qilib olindi. Mazkur model globallashuv natijasida yuzaga keladigan iqtisodiy imkoniyatlarning aholi daromadlari va bandligiga ta’siri orqali kambag‘allikni qisqartirish mexanizmini tushuntirishga xizmat qiladi.

Xalqaro tajribani o‘rganishda mamlakatlar iqtisodiy rivojlanish darajasi, kambag‘allikni qisqartirish siyosati va institutsional mexanizmlarining o‘xshashligi asosida tanlandi. Bunda rivojlangan, rivojlanayotgan va o‘tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarning tajribasi qiyosiy o‘rganilib, O‘zbekiston sharoitida qo‘llash mumkin bo‘lgan samarali mexanizmlar ajratib olindi.

Kambag‘allikni qisqartirish siyosatining samaradorligini baholashda quyidagi yo‘nalishlar asosiy mezon sifatida belgilandi: daromadlarni oshirish, samarali bandlikni ta’minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, inson kapitaliga investitsiyalarni ko‘paytirish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish, moliyaviy inklyuziyani kengaytirish va hududlar o‘rtasidagi tafovutlarni kamaytirish.

Empirik tahlilda kambag‘allik darajasi bilan asosiy iqtisodiy-ijtimoiy determinantlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash uchun korrelyatsion va regression usullardan foydalanish nazarda tutildi. Regression modelda kambag‘allik darajasi natijaviy o‘zgaruvchi sifatida, aholi daromadlari, bandlik, ishsizlik, ta’lim, investitsiyalar, tadbirkorlik va ijtimoiy himoya xarajatlari esa mustaqil o‘zgaruvchilar sifatida qaralishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligini oshirish maqsadida turli manbalardan olingan ma’lumotlarni o‘zaro solishtirish, statistik ko‘rsatkichlarning vaqt bo‘yicha izchilligini tekshirish va nazariy xulosalarni empirik natijalar bilan uyg‘unlashtirish tamoyillariga amal qilindi.

Shunday qilib, mazkur metodologiya globallashuv sharoitida kambag‘allikni faqat daromad yetishmovchiligi sifatida emas, balki bandlik, inson kapitali, ijtimoiy himoya, texnologik o‘zgarishlar, xalqaro iqtisodiy integratsiya va hududiy rivojlanish bilan bog‘liq kompleks ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida tadqiq etish imkonini beradi. Tadqiqot natijalari asosida O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishning iqtisodiy jihatdan samarali, ijtimoiy jihatdan inklyuziv va globallashuv jarayonlariga mos mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqiladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Globallashuv sharoitida kambag'allikni qisqartirish jarayonini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, globallashuv va kambag'allik o'rtasidagi munosabat bir yo'nalishli emas. Xalqaro savdo, xorijiy investitsiyalar, texnologiyalar transferi va mehnat bozorlarining integratsiyalashuvi iqtisodiy faollik hamda yangi daromad manbalarini kengaytirishi mumkin. Shu bilan birga, globallashuvdan olinadigan iqtisodiy manfaatlarning notekis taqsimlanishi, malakasiz mehnatga talabning qisqarishi, daromadlar tengsizligi va tashqi iqtisodiy shoklar kambag'allik xavfini kuchaytirishi mumkin.

2026-yilda e'lon qilingan yangi empirik tadqiqotda 116 ta rivojlanayotgan mamlakatning 2000–2021-yillardagi ma'lumotlari asosida globallashuvning kambag'allikka ta'siri Hansen panel threshold modeli, panel-corrected standard errors va dinamik GMM yordamida baholangan. Tadqiqot natijalari globallashuvning kambag'allikni kamaytiruvchi ta'siri chiziqli emasligini ko'rsatgan. Ayniqsa, institutsional sifati yuqori bo'lgan mamlakatlarda globallashuvning kambag'allikni kamaytirish samarasi kuchliroq namoyon bo'ladi. Bu natija globallashuvning o'zi emas, balki undan olinadigan manfaatlarni samarali taqsimlay oladigan institutlar kambag'allikni qisqartirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi. Tahlil natijalarini quyidagi mexanizm orqali ifodalash mumkin:

Globallashuv → savdo va investitsiyalar → iqtisodiy o'sish → yangi ish o'rinlari → aholi daromadlarining o'sishi → kambag'allikning qisqarishi.

Biroq mazkur zanjirning samarali ishlashi institutsional sifat, inson kapitali va daromadlarning taqsimlanishiga bog'liq. Agar iqtisodiy o'sish yuqori bo'lsa-yu, uning natijalari aholining kambag'al qatlamlariga yetib bormasa, globallashuvning kambag'allikni kamaytirish samarasi cheklangan bo'ladi.

1-jadval

Globallashuv va kambag'allik o'rtasidagi bog'liqlik

Globallashuv omili	Kambag'allikka ijobiy ta'siri	Ehtimoliy salbiy ta'siri
Xalqaro savdo	Ekspart, ishlab chiqarish va bandlikni oshiradi	Mahalliy raqobatbardoshligi past korxonalar qisqarishi mumkin
Xorijiy investitsiyalar	Kapital va yangi ish o'rinlarini yaratadi	Daromadlarning ayrim guruhlarda konsentratsiyalanishi mumkin
Texnologiyalar transferi	Mehnat unumdorligini oshiradi	Past malakali ishchi kuchiga talab kamayishi mumkin
Mehnat migratsiyasi	Uy xo'jaliklari daromadlarini oshiradi	Malakali ishchi kuchining chiqib ketish xavfi mavjud
Raqamli iqtisodiyot	Yangi biznes va masofaviy bandlik imkoniyatlarini yaratadi	Raqamli tafovutni kuchaytirishi mumkin
Xalqaro integratsiya	Bozorlar va resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi	Tashqi iqtisodiy inqirozlarga bog'liqlikni oshirishi mumkin
Xalqaro ijtimoiy hamkorlik	Ijtimoiy dasturlar va moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytiradi	Tashqi moliyaviy resurslarga qaramlik yuzaga kelishi mumkin

1-jadvaldan ko'rinadiki, globallashuv kambag'allikni kamaytirish uchun katta iqtisodiy imkoniyatlar yaratadi, biroq ushbu imkoniyatlardan foydalanish

mamlakatning institutsional va inson kapitali salohiyatiga bog'liq.

Jahon bankining 2024-yilgi *Poverty, Prosperity, and Planet Report* ma'lumotlariga ko'ra, global kambag'allikni qisqartirish sur'atlari sezilarli darajada sekinlashgan. 2024-yilda dunyo aholisining qariyb 8,5 foizi kuniga 2,15 dollardan kam daromad bilan yashagan, ya'ni qariyb 700 million kishi ekstremal kambag'allik sharoitida qolgan. Jahon banki amaldagi tendensiyalar davom etsa, 2030-yilda ham 622 million kishi ekstremal kambag'allikda qolishi mumkinligini prognoz qilgan.

2026-yil mart oyida Jahon banki global kambag'allik bo'yicha ma'lumotlarni yangilab, 2024-yil uchun ekstremal kambag'allik darajasini 10,4 foiz deb qayta baholadi. Ushbu ko'rsatkich yangi uy xo'jaliklari so'rovlari, takomillashtirilgan ma'lumotlar va hisoblash metodologiyasidagi yangilanishlarni aks ettiradi.

Mazkur holat globallashtirish sharoitida iqtisodiy o'sishning o'zi kambag'allikni bartaraf etish uchun yetarli emasligini ko'rsatadi. Jahon banki kambag'allikni qisqartirish uchun tezroq va inklyuziv iqtisodiy o'sish, ko'proq va sifatli ish o'rinlari, ta'lim, infratuzilma hamda asosiy xizmatlarga investitsiyalar zarurligini ta'kidlamogda.

Globallashtirish jarayonlarining O'zbekiston iqtisodiyotiga ta'siri sharoitida kambag'allikni qisqartirish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning natijalarini ham tahlil qilish muhimdir. Jahon bankining 2025-yilgi O'zbekiston bo'yicha *Poverty & Equity Brief* ma'lumotlariga ko'ra, milliy kambag'allik darajasi 2021-yildagi 17,0 foizdan 2024-yilda 8,9 foizgacha pasaygan.

2-jadval

O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish dinamikasi

Ko'rsatkich	2021-yil	2024-yil	O'zgarish
Milliy kambag'allik darajasi	17,0%	8,9 %	-8,1 %
Kambag'allik darajasi, qishloq joylarda	-	2023–2024-yillarda -2,8 %	Pasayish
Kambag'allik darajasi, shaharlarda	-	2023–2024-yillarda -1,5 %	Pasayish

O'zbekistonda 2024-yildagi kambag'allikning qisqarishida ish haqi bilan bir qatorda biznes va qishloq xo'jaligi daromadlarining o'sishi hamda bandlik darajasining oshishi muhim rol o'ynagan. Ayniqsa, qishloq joylarda kambag'allik darajasi 2023–2024-yillarda 2,8 foiz punktga kamaygan va ushbu davrda taxminan 460 ming kishi kambag'allikdan chiqib ketgan. Shaharlarda esa kambag'allikdan chiqqanlar soni taxminan 250 ming kishini tashkil etgan.

Bu holat O'zbekiston sharoitida kambag'allikni qisqartirishning eng muhim mexanizmlaridan biri barqaror daromad manbalarini shakllantirish ekanligini ko'rsatadi. Ya'ni ijtimoiy yordam bilan bir qatorda aholining iqtisodiy faolligini oshirish, tadbirkorlik va bandlik imkoniyatlarini kengaytirish uzoq muddatli natija beradi.

Bunda institutsional sifat mazkur mexanizmning barcha bosqichlarini bog'lovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Yangi empirik tadqiqot ham aynan institutsional sifat globallashtirishning kambag'allikni kamaytiruvchi ta'sirini kuchaytirishini ko'rsatgan.

Shuningdek, globallashtirishning kambag'allikka ta'sirida inson kapitali muhim o'rin tutadi. Ta'lim va kasbiy malaka darajasi yuqori bo'lgan aholining global mehnat

bozorida raqobatlashish imkoniyati yuqori bo'ladi. Shu sababli globallashuvdan olinadigan manfaatlarni kengaytirish uchun kambag'al qatlamlar uchun sifatli ta'lim, kasbiy qayta tayyorlash va raqamli ko'nikmalarni rivojlantirish dasturlarini kengaytirish zarur. Tadqiqot natijalaridan quyidagi ilmiy xulosalarni shakllantirish mumkin:

Birinchidan, globallashuvning o'zi kambag'allikni avtomatik ravishda kamaytirmaydi. Uning ta'siri mamlakatdagi institutsional muhit va iqtisodiy siyosat samaradorligiga bog'liq.

Ikkinchidan, iqtisodiy o'sish kambag'allikni kamaytirishning muhim sharti bo'lsa-da, uning inklyuzivligi hal qiluvchi ahamiyatga ega. Jahon banki ham o'rtacha daromadlarning o'sishi rivojlanishning yagona mezonini emasligini, kambag'al qatlamlarning daromadlari va farovonligidagi o'zgarishlarni ham hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi.

Uchinchidan, sifatli bandlik kambag'allikni qisqartirishning eng barqaror mexanizmlaridan biridir. O'zbekiston tajribasida 2024-yilda biznes va qishloq xo'jaligi daromadlarining o'sishi hamda bandlikning oshishi kambag'allikning qisqarishiga sezilarli hissa qo'shgan buning amaliy dalilidir.

To'rtinchidan, institutsional sifat globallashuvdan olinadigan foydaning kambag'al qatlamlarga yetib borishini ta'minlovchi muhim vositadir. Zaif institutlar sharoitida globallashuv natijasida yaratilgan qo'shimcha qiymatning katta qismi iqtisodiy jihatdan kuchli guruhlarda to'planishi mumkin.

Beshinchidan, kambag'allikni qisqartirish siyosati ekologik va iqlimiy xavflarni ham hisobga olishi kerak. Jahon banki iqlim o'zgarishi va ekstremal ob-havo hodisalari kambag'al aholining daromadlari va turmush sharoitiga kuchli zarba berishi mumkinligini qayd etadi. Shu sababli kambag'allikni qisqartirish bilan birga iqtisodiy barqarorlik va iqlimga moslashuv choralari ham kuchaytirish zarur.

Umuman olganda, tahlil natijalari globallashuvning kambag'allikni qisqartirishdagi samarasi "globallashuvning mavjudligi"ga emas, balki undan olinadigan imkoniyatlarning qanchalik inklyuziv taqsimlanishiga bog'liqligini ko'rsatadi. Shuning uchun globallashuv sharoitida kambag'allikka qarshi siyosatni faqat ijtimoiy nafaqalar bilan cheklamasdan, sifatli bandlik + inson kapitali + tadbirkorlik + kuchli institutlar + manzilli ijtimoiy himoya + raqamli inklyuziya tamoyillari asosida shakllantirish maqsadga muvofiq. O'zbekistonning 2021–2024-yillardagi natijalari esa daromadlar va bandlikni oshirishga yo'naltirilgan choralar kambag'allikni sezilarli darajada qisqartirishi mumkinligini ko'rsatmoqda.

MUHOKAMA

Globallashuv zamonaviy jahon iqtisodiyotining eng muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, u mamlakatlar o'rtasidagi savdo, investitsiya, texnologiya, kapital, mehnat resurslari va axborot almashinuvini sezilarli darajada kuchaytirdi. Ushbu jarayon iqtisodiy o'sish va yangi imkoniyatlar yaratishi bilan bir qatorda, daromadlar tengsizligi, mehnat bozoridagi transformatsiyalar va ijtimoiy himoyaga ehtiyojning ortishi kabi yangi muammolarni ham yuzaga keltirmoqda. Shu sababli globallashuv sharoitida kambag'allikni qisqartirish masalasi milliy iqtisodiy siyosat chegarasidan

chiqib, global iqtisodiy siyosatning muhim yo'nalishiga aylanmoqda.

Globallashuvning kambag'allikka ta'sirini baholashda, avvalo, uning ikki tomonlama xususiyatini hisobga olish zarur. Bir tomondan, xalqaro savdoning kengayishi, xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi, yangi texnologiyalarning tarqalishi va mehnat migratsiyasi rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy faollik va aholi daromadlarini oshirishga xizmat qilishi mumkin. Ikkinchi tomondan, globallashuvdan olinadigan manfaatlar mamlakatlar, hududlar va aholi guruhlari o'rtasida bir xil taqsimlanmasligi mumkin.

Shu nuqtayi nazardan, globallashuvning o'zi kambag'allikni avtomatik ravishda qisqartiruvchi omil sifatida qaralmasligi kerak. Uning ijobiy natijalari institutsional muhit, inson kapitali, mehnat bozori va davlatning ijtimoiy siyosati bilan chambarchas bog'liq.

Globallashuvning eng muhim ijobiy ta'sirlaridan biri xalqaro iqtisodiy aloqalarning kengayishi orqali ishlab chiqarish va eksport imkoniyatlarining ortishidir. Eksportga yo'naltirilgan tarmoqlarning rivojlanishi yangi ish o'rinlarini yaratib, aholining mehnat daromadlarini oshirishi mumkin.

Biroq iqtisodiy o'sishning o'zi kambag'allikni qisqartirish uchun yetarli emas. Agar iqtisodiy o'sish natijasida yaratilgan qo'shimcha daromadlarning asosiy qismi yuqori daromadli guruhlar hissasiga to'g'ri kelsa, iqtisodiy o'sish bilan bir vaqtda ijtimoiy tengsizlik ham kuchayishi mumkin.

Shuning uchun zamonaviy sharoitda "iqtisodiy o'sish"dan ko'ra "inklyuziv iqtisodiy o'sish" tushunchasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Inklyuziv o'sishning asosiy mazmuni iqtisodiy faoliyat natijalaridan aholining keng qatlamlari, jumladan, kambag'al va ijtimoiy zaif guruhlar ham foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishini ta'minlashdan iborat.

Globallashuv mehnat bozorining tarkibiy o'zgarishlarini tezlashtirmoqda. Xalqaro kompaniyalar, eksportga yo'naltirilgan ishlab chiqarish, xizmatlar eksporti va raqamli platformalarning rivojlanishi yangi ish imkoniyatlarini yaratmoqda.

Shu bilan birga, texnologik taraqqiyot ayrim past malakali ish o'rinlarining qisqarishiga ham olib kelishi mumkin. Natijada mehnat bozorida malaka tafovuti kuchayadi. Zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lgan xodimlarga talab ortib borayotgan bir paytda past malakali ishchilar kambag'allik xavfiga ko'proq duch kelishi mumkin. Demak, globallashuv sharoitida kambag'allikni qisqartirishning muhim sharti — mehnat bozorining yangi talablariga mos inson kapitalini shakllantirishdir.

XULOSA

Tadqiqot natijalari globallashuv sharoitida kambag'allikni qisqartirish masalasi murakkab va ko'p omilli ijtimoiy-iqtisodiy jarayon ekanligini ko'rsatdi. Globallashuv xalqaro savdo, investitsiyalar, texnologiyalar transferi, mehnat migratsiyasi va raqamli iqtisodiyot orqali mamlakatlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirayotgan bo'lsa-da, uning natijalari jamiyatning barcha qatlamlari uchun bir xil darajada namoyon bo'lmaydi. Shu sababli globallashuvni kambag'allikni avtomatik ravishda

kamaytiruvchi omil sifatida emas, balki tegishli institutsional va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar mavjud bo'lgandagina ijobiy natija beruvchi jarayon sifatida baholash maqsadga muvofiq.

Tadqiqotda globallashuvning kambag'allikka ta'sirini belgilovchi asosiy omillar sifatida iqtisodiy o'sish, bandlik, aholi daromadlari, inson kapitali, daromadlar tengsizligi, institutsional sifat, ijtimoiy himoya va raqamli inklyuziya aniqlandi. Ularning o'zaro uyg'unligi kambag'allikni qisqartirishning barqarorligini belgilaydi. Ayniqsa, iqtisodiy o'sishning inklyuzivligi muhim bo'lib, iqtisodiy o'sish natijalari aholining kam daromadli qatlamlariga yetib bormasa, globallashuvning kambag'allikni kamaytirishdagi samarasi cheklangan bo'lib qoladi.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, globallashuv sharoitida sifatli va barqaror bandlik kambag'allikni qisqartirishning eng muhim mexanizmlaridan biridir. Aholining doimiy mehnat daromadlariga ega bo'lishi nafaqat joriy iste'mol imkoniyatlarini yaxshilaydi, balki ta'lim, sog'liqni saqlash, uy-joy va tadbirkorlikka investitsiya qilish imkoniyatlarini ham kengaytiradi. Shu bois kambag'allikni qisqartirish siyosatida qisqa muddatli moddiy yordam bilan bir qatorda aholining o'z daromadini shakllantirish imkoniyatlarini kengaytirishga ustuvor ahamiyat berish zarur.

O'zbekiston tajribasi ham mazkur xulosalarni tasdiqlaydi. Mamlakatda milliy kambag'allik darajasining 2021-yildagi 17 foizdan 2024-yilda 8,9 foizgacha pasayishi kambag'allikni qisqartirish bo'yicha amalga oshirilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy siyosatning ijobiy natijalaridan dalolat beradi. Bunda ish haqi, tadbirkorlik va qishloq xo'jaligi daromadlarining o'sishi hamda bandlikning yaxshilanishi muhim omillar bo'lgan.

Shu bilan birga, globallashuvning yangi bosqichi kambag'allikni qisqartirish siyosatiga yangi talablarni qo'ymoqda. Xususan, raqamli tafovut, texnologik ishsizlik, iqlim o'zgarishi, tashqi iqtisodiy shoklar va global daromadlar tengsizligi kambag'allikning yangi xavf omillari sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu sababli kambag'allikka qarshi siyosat an'anaviy daromad va ijtimoiy yordam mexanizmlari bilan cheklanmasdan, aholining zamonaviy iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanish qobiliyatini oshirishga yo'naltirilishi lozim.

Tadqiqot asosida globallashuv sharoitida kambag'allikni qisqartirishning quyidagi ustuvor yo'nalishlarini taklif etish mumkin:

- inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash va uning natijalarini aholining kam daromadli qatlamlariga yetkazish;
- munosib va barqaror ish o'rinlarini yaratish, ayniqsa yoshlar va mehnat bozorida zaif guruhlar uchun bandlik imkoniyatlarini kengaytirish;
- inson kapitaliga investitsiyalarni oshirish, ta'lim, kasbiy tayyorgarlik va zamonaviy ko'nikmalarni rivojlantirish;
- kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash orqali aholining mustaqil daromad manbalarini ko'paytirish;
- manzilli ijtimoiy himoyani kuchaytirish va ijtimoiy yordamning samaradorligini oshirish;
- raqamli inklyuziyani ta'minlash, aholining raqamli xizmatlar va yangi iqtisodiy imkoniyatlardan foydalanishini kengaytirish;

- hududlar oʻrtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarni kamaytirish;
- kambagʻallikni faqat daromad mezoni bilan emas, balki koʻp oʻlchovli indikatorlar asosida muntazam baholab borish.

Shunday qilib, globallashuv sharoitida kambagʻallikni qisqartirishning zamonaviy modeli “ijtimoiy yordam berish”dan “barqaror iqtisodiy imkoniyat yaratish”ga oʻtishni nazarda tutadi. Bunda davlat tomonidan yaratiladigan institutsional muhit, xususiyl sektor faolligi, inson kapitalining rivojlanishi va aholining iqtisodiy jarayonlarga faol jalb etilishi oʻzaro uygʻunlashishi kerak.

Umuman olganda, kambagʻallikni qisqartirishning uzoq muddatli samaradorligi globallashuv imkoniyatlaridan foydalanish + inklyuziv iqtisodiy oʻsish + sifatli bandlik + inson kapitali + kuchli institutlar + manzilli ijtimoiy himoya uygʻunligiga bogʻliq. Mazkur yondashuv Oʻzbekiston sharoitida kambagʻallikni nafaqat miqdoriy jihatdan kamaytirish, balki aholining farovonligi va iqtisodiy barqarorligini uzoq muddatli istiqbolda oshirish uchun muhim ilmiy-amaliy asos boʻlib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Bisiriyu A., Malik N. Globalization and poverty reduction in developing economies [Text]: scientific research / – 2024.
2. Ochi A., et al. Globalization, economic growth and poverty reduction [Text]: scientific article / – 2024.
3. Saidi K., et al. Globalization, institutional quality and poverty reduction [Text]: scientific article / – 2024.
4. Pal S. Globalization and poverty in developing economies [Text]: scientific article / – 2024.
5. Bolarinwa O., et al. Globalization and poverty dynamics in developing countries [Text]: scientific article / – 2025.
6. Bisiriyu A., Malik N. Effect of Globalization on Poverty Reduction: Global Threshold Evidence for Achieving Sustainable Development Goal 1 [Text]: scientific article // Research in Globalization. – 2026. – Vol. 12. – Article 100329.
7. World Bank. Poverty, Prosperity, and Planet Report 2024: Pathways Out of the Polycrisis [Text]: report / World Bank – Washington, DC.: World Bank, 2024.
8. Genoni M.E., Lakner C. Blueprint for Change: Ending Poverty on a Livable Planet is Possible [Electronic resource]: analytical research / World Bank – Washington, DC.: World Bank, 2024.
9. Sen A. Development as Freedom. – New York: Oxford University Press, 1999.
10. Stiglitz J.E. Globalization and Its Discontents. – New York: W.W. Norton & Company, 2002.
11. Овчарова Л.Н. Теоретические и практические подходы к оценке уровня, профиля и факторов бедности: российский и международный опыт. – М.: М-Студио, 2009. – 267 с.
12. Aripov O.A., Xolmirzayev A.X. Kambagʻallik, uning turlari va unga qarshi kurashish // Journal of Marketing, Business and Management. – 2022.
13. Vosiqov U.A. Aholi daromadlari tabaqalanishi va kambagʻallikni qisqartirishda

fiskal siyosatdan foydalanish: iqtisodiyot fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2025. – 76 b.

14. Karabayeva G.Sh. Moliyaviy savodlilikni oshirish kambag'allikni qisqartirish vektori // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2024. – № 9. – B. 309–317.

15. Fayzieva M. Kambag'allikni qisqartirishga raqamli texnologiyalarning ta'siri. – 2024.

16. Toyirov Sh. Kambag'allikni kamaytirishda xalqaro amaliyotni qo'llash imkoniyatlari // Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil. – 2025. – № 12. – B. 278–284.